

**MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTRLARIDA MILLIY QADRIYATLAR
VOSITASIDA TA`LIM-TARBIYA JARAYONLARINING TASHKIL ETISH
YO`LLARI**

D.M.Maxmudova

*Toshkent amaliy fanlar universiteti “Maktabgacha ta`lim metodikasi”
kafedra dotsenti
maxmudovad@gmail.com*

Achilova Zuhra,

Xamidova Shahnoza,

Maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabalari

***Annotatsiya.** maqolada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ta`lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni singdirishning samaradorligi ko`p jihatdan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni to`g`ri tanlash va qo`llash usullari keltirilgan. Milliy qadriyatlar - millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlarini, an`analarida namoyon bo`ladi. Milliy qadriyatlar negizida «millat», «o`zbek» degan so`zlar o`z ifodasini topgan.*

***Kalit so`zlar:** millat, qadriyat, tarixiy, urf-odat, an`ana, sharqona, meros, shaxs.*

***Аннотация.** В статье представлена эффективность внедрения национальных ценностей в образовательный процесс в дошкольных образовательных организациях, а также методы правильного отбора и применения современных педагогических технологий. Национальные ценности проявляются в языке, истории, обычаях, традициях национальной личности. В основе национальных ценностей лежат слова «нация», «узбек».*

***Ключевые слова:** нация, ценность, исторический, обычай, традиция, восточный, наследие, личность.*

***Abstract.** This article presents the effectiveness of integrating national values into the educational process in preschool educational institutions, as well as methods for the appropriate selection and application of modern pedagogical technologies. National values are manifested in the language, history, customs, and traditions of the national identity. The words "nation" and "Uzbek" underlie these national values.*

***Keywords:** nation, value, historical, customs, tradition, Eastern, heritage, identity.*

Kirish. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta`kidlaganidek: “Biz o`z tariximizni, milliy qadriyatlarimizni bilgan, unga hurmat bilan qaraydigan, yuksak ma`naviyatli avlodni tarbiyalashimiz kerak.” Ushbu fikr milliy o`zlikni yuksaltirishning asosiy g`oyaviy tamoyilini belgilab beradi.

Shu boisdan, yosh avlodni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg`unlashtirish, ularning ma`naviy dunyosini boyitish, milliy o`zlikni anglash va saqlashga xizmat qiluvchi yondashuvlarni ishlab chiqish hozirgi ta`lim jarayonining ustuvor yo`nalishiga aylanmoqda. Asosiy qism. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – bu nafaqat ularning ma`naviy dunyosini boyitish, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta`minlovchi muhim jarayondir. Qadriyatlar mavzusini Abu Rayhon Beruniy ham chetlab o`tmagan. Uning fikricha, qadriyatlarining

vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog‘langan.

Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va umuminsoniy g‘oyalar bilan uyg‘unlashgan hayotiy tamoyillari sifatida inson kamolotida katta ahamiyatga ega. Har bir yosh avlod o‘z millatining tili, dini, urf-odati, madaniyati, san‘ati va tarixini bilish orqali o‘z o‘tmishiga hurmat bilan qaraydi, kelajakka ishonch bilan intiladi. Shu sababli milliy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, ularning o‘zligini anglash va vatanparvarlik ruhida shakllanishida beqiyos o‘rin tutadi. Ma’naviy merosimizga asoslangan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda boyitish va saqlab qolish, rivojlantirish hamda kelgusi avlodlarga yetkazib berish asosiy vazifaga aylangan.

Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni singdirishning samaradorligi ko‘p jihatdan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llashga bog‘liqdir. Milliy qadriyatlar - millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlarini, an‘analarida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar negizida «millat», «o‘zbek» degan so‘zlar o‘z ifodasini topgan. “Milliy qadriyat- birdamlik va hamjihatlik tuyg‘usi zaminida shakllangan vatanparvarlikni ham o‘z ichiga oladi. Yosh avlodlarda ona zamiinga bo‘lgan muhabbat u bilan faxrlanish qanchalik kuchli bo‘lsa. Vatanni sevish, yuksak darajada e‘zozlash kuchaysa har bir inson o‘z vatani tarixi, milliy qadriyatlari, o‘zining ona tili, madaniyati, milliy urf-odatlarini, an‘analarini mukammal bilsa, millat taqdiri va istiqboli haqida chuqur tasavvurga ega bo‘lsa, mustaqillik shunchalik mustahkam va barqaror bo‘ladi”.

Milliy qadriyatlarni xususan yosh avlodlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta’lim-tarbiya. targ‘ibot va tashviqotning samarali shakl va vositalaridan oqilona foydalanish taqazo e‘tiladi. Shu bois vatan-tuyg‘usi. vatanparvarlik hislari, milliy g‘urur, mustaqillik g‘oyasi hamda mehr va sadoqatli bolani yoshiga mos ravishda shakllantirish maktabgacha ta’lim tashkiloti vazifalarining asosini tashkil etadi.

Bunda esa maktabgacha ta’lim tashkilotida. asosiy faoliyat sifatida milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni yuzaga chiqdi. Mazkur holat esa. maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishni tashkil etish jarayonini samarali boshqarishni shart qilib qo‘yadi.

Milliy qadriyat - muayyan millatning tarixiy o‘tmishidan, jahon miqyosida asrlar osha tan olinib kelinayotgan fan, din, adabiyot, san‘at va madaniyat yutuklari va ularni yaratgan daxolardan tarixiy obida va yodgorliklardan milliy urf-odatlaridan faxrlana olish hissidir. Milliy qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni shakllantirishning yana bir manbai xalq qo‘shiqlaridir. Xalq qo‘shiqlari ta’lim-tarbiya vositasi sifatida sharq xalqlari pedagogik tafakkurida muhim o‘rin tutadi. Xalq qo‘shiqlarida insonning ruhiy kechinmalari, o‘ylari, orzu-umidlari aks etgan bo‘ladi. O‘zlikni anglashning ushbu

vositasi yoshlarni ruhiy tetiklikka, osoyishtalikka, hayotni sevishga, fidoyilik ko‘rsatishga, sevish va sadoqatli bo‘lishga o‘rgatadi. Xalq qo‘shiqlarining so‘zlari purma‘no bo‘lib, u yoshlarning nutqini, so‘z boyligini rivojlantiradi, didi va dunyoqarashini shakllantiradi. Xalqimizning an‘analari, urf-odatlarini, o‘ziga xos turmush tarzi bilan tinglovchini yaqindan tanishtiradi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mehnat turlari va udumlardan xabardor qiladi. Ajdodlarimiz davridan musiqaga nisbatan ma‘naviy-axloqiy tarbiya bulog‘i, shaxs ma‘naviyatini yuksaltiruvchi ko‘prik, inson ruhiy olamiga sokinlik, orom beruvchi manba sifatida qaralgan. Insonning taqdiri uning axloqiy tarbiyasi bilan ham bevosita bog‘liq. Chunki, ma‘naviy-axloqiy tarbiyali inson shaxs sifatida jamiyatda alohida o‘rin egallaydi. Inson musiqa va qo‘shiq vositasida axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Natijada esa unda ijobiy xarakterdagi axloqiy sifatlarni tarkib topadi. Inson musiqa va qo‘shiq yordamida axloqiy prinsiplarga amal qilib yashashga o‘rganadi. Inson eng oliy qadriyat sifatida o‘z ruhiyatini kamol toptirish imkoniyatiga ega. Go‘zal fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik tafakkur durdonalari, jumladan, xalq musiqalari, shashmaqomlar, suvoralar butun insoniyatning mulki hisoblanadi. Uni avlodlardan avlodga uzatish, yosh avlodga mazmun-mohiyatini anglatish jamiyatning o‘qimishli kishilari, shu jumladan, pedagoglarning asosiy burchi hisoblanadi. Chunki yaxshifazilatlarni o‘zida mujasamlashtirgan avlod har qanday millat va jamiyatning boyligi hisoblanadi. Ijobiy fazilat egalari bo‘lgan jamiyat a‘zolari uning ravnaqiga xizmat qiladi, kelgusi avlodlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ajdodlarimiz barkamol insonning o‘ziga xos axloq me‘yorlarini ishlab chiqib, uni nazm va navo vositasida kelgusi avlodlarga yetkazishga harakat qilganlar. Har bir shaxs ta‘lim-tarbiya vositasida jamiyat hayotiga moslashtiriladi. Chunki muayyan jamiyat hayotidagi barcha muammolarning yechimi ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk fuqarolarning fidokorona, halol mehnati, hamkorligi, imon-e‘tiqodiga bog‘liq.

Insoniyat o‘zining butun tarixiy taraqqiyoti davomida ma‘naviy-axloqiy tarbiya doirasida ikkita muhim masalaga yechim izlagan: birinchisi – haqiqiy inson qanday yashashi kerak; ikkinchisi – qanday ezgu ishlarni bajarish, qanday harakatlardan tiyilish lozim. Bugungi kunda jamiyatimiz a‘zolari uchun ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Chunki globallashtirish sharoitida axborotlar oqimi jadallashmoqda. Turli innovatsion g‘oyalar bilan bir qatorda buzg‘unchi, milliy g‘oyamizga zid bo‘lgan mafkuraviy tahdidlar ham kirib kelmoqda. Irodasi bo‘sh, o‘z xalqining asl tarixini yaxshi anglab yetmagan, ajdodlarimiz merosidan bexabar yoshlar mana shunday buzg‘unchi g‘oyalarning asiri bo‘lib qolmoqdalar. Bunday holatlarni bartaraf etishning asosiy sharti maktabgacha ta‘lim yoshidan boshlab bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni ni shakllantirishdan iborat.

Jahonda millatlar, elatlar ko‘p. Har bir xalqning xilma-xil urf-odatlarini, dunyoqarashi, ma‘naviyati bor. Tarixiy jarayon shuni ko‘rsatadiki, faqat ma‘naviy

dunyosi boy, dunyoqarashi keng, o'zini, o'zligini anglaganlargina turli sinovlardan o'ta olgan. Bugun ham yer yuzida minglab el va elatlar bo'lgani bilan o'z yurti va davlatchiligiga ega xalqlar soni yuztani ham tashkil qilmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, har yili qirqaqa yaqin til, demakki, millat yo'qolib ketadi. Borliqning azaliy qonuni shuki, kurasha olmaydiganlar hamisha mag'lub bo'ladi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi murakkab tarixiy taraqqiyotni boshidan kechirib, o'z nomi, tili va davlatchiligiga ega bo'lgan millatlar qatoridan joy olgan. O'tmishda buyuk ajdodlarimiz o'z sha'ni, qadr-qimmatini, millatning or-nomusi, erkin va ustuvorligi uchun qattiq kurashganini juda ko'p misollar bilan asoslash mumkin. Qadimgi yunon tarixchilari asarlari orqali bizgacha yetib kelgan Shiroq va To'maris kabi o'z Vatanini dushman qo'lga topshirishni or deb bilgan bobolaru momolarning mardligi, jasoratiga hatto Gerodot va Polienlar ham tan bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кадирова, Ф.Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 10-16.
2. Махмудова, Д.М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 274-278.
3. Мирча Элиаде. История веры и религиозных идей. Том 3. Анонс трех томов в одном файле. Перевод Кулаковой Н.Н., Рокитянского В.Р., Стефанова Ю.Н. – М.: «Критерий», 2002. – С. 40-61-142.
4. Смирнов А.В. Осознать смысл, осмыслить сознание: манифест Другой О-75 философии: сб. статей / отв. ред. серии Р.В. Пеху; отв. ред. тома. – М.: ООО «Садра», 2022. – С.213-215.
5. Makhmudova, D.M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 177-180.
6. Махмудова, Д.М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
7. Makhmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Science and innovation, 1(B7), 1213-1217.
8. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).